

## O‘ZBEK SHEVALARINING O‘RGANILISHI VA DIALEKTAL LUG‘ATLARNING AHAMIYATI HAQIDA

**Nurmonov Furqat Xayitqulovich**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti

Email: [furqatnx@gmail.com](mailto:furqatnx@gmail.com)

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2895-4717>

***Annotatsiya.** Lug‘at tilning boyligi va jozibasini ko‘rsatuvchi, uning xazinasini saqlovchi va imkoniyatlarini ochib beruvchi vosita sanaladi. Yo‘qolib borayotgan til va dialektlarning so‘z boyligini asrab qolishda, keyinchalik ularni o‘qib-o‘rganish va tadqiq qilishda lug‘atlarning ahamiyati juda katta. Shuning uchun ham lug‘atlar millat xazinasidir. Ularni tuzish doimo dolzarb, birlamchi vazifa hisoblanib kelingan. Lug‘atlar vositasida dunyoning klassik tillari (lotin, yunon, sanskrit, ibroniy, so‘g‘d) qayta “tiriltirilib”, foydalanib kelinmoqda. Xalqaro ilmiy terminlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, qadimda yaratilgan lug‘atlarning ahamiyati qanday ekanligiga amin bo‘lamiz. Bugungi kunda o‘zbek xalq sheva va lahjalarining yo‘qolib borayotgani va kam tadqiq etiloyotganligini hisobga olib, dialektologiya fanini rivojlantirishimiz hamda, eng muhimi, shevaga xos birliklarning lug‘atlarini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu kichik tadqiqotimizda o‘zbek sheva va lahjalarning tadqiqi bo‘yicha qisqacha tadriji hamda dialektal lug‘atchiligi tarixi, tiplari va o‘z oldiga qo‘ygan muhim masalalariga e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, bugungi kunda o‘zbek dialektologiyasi fani oldidagi dolzarb vazifalar haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** til, sheva, lahja, dialekt, xalq tili, lug‘at, dialektal lug‘at, lug‘at tiplari, madaniy til, etnografizmlar, lungvokulturemalar, til korpusi, dialektal korpus, tadqiqot, tahlil, metod.*

## ОБ ИЗУЧЕНИИ УЗБЕКСКИХ ДИАЛЕКТОВ И ЗНАЧЕНИИ ДИАЛЕКТНЫХ СЛОВАРЕЙ

***Аннотация.** Словарь считается инструментом, показывающим богатство и обаяние языка, хранителем его сокровищницы и раскрывающим его возможности. Значение словарей в сохранении словарного запаса исчезающих языков и диалектов, их последующем изучении и обследовании очень велико. Поэтому словари – это сокровище народа. Их составление всегда считалось актуальной, первоочередной задачей. При помощи словарей заново “воскрешаются” и используются классические языки мира (латинский,*

греческий, санскрит, иврит, согдийский). Анализируя международные научные термины, мы можем убедиться в значении словарей, созданных в древности. Учитывая, что сегодня узбекские народные диалекты и говоры находятся под угрозой исчезновения и мало изучены, актуальным становится развитие диалектологии и, самое главное, создание словарей диалектных единиц. В этом небольшом исследовании основное внимание уделяется краткому опыту изучения узбекских диалектов и говоров, а также истории, видам и важным вопросам диалектной лексики. Также были рассмотрены актуальные задачи, стоящие сегодня перед наукой узбекской диалектологии.

**Ключевые слова:** язык, диалект, говор, диалект, просторечие, лексика, диалектная лексика, типы лексики, культурный язык, этнография, лунгвокультуремы, языковой корпус, диалектный корпус, исследование, анализ, метод.

## ABOUT THE STUDY OF UZBEK DIALECTS AND THE IMPORTANCE OF DIALECTUAL DICTIONARIES

**Annotation.** *The dictionary is considered as a means that shows the lexical resource and the beauty of the language, that preserves its treasury and reveals its capabilities. The importance of dictionaries in preserving the vocabulary of endangered languages and dialects, their subsequent study and research is very great. That is why dictionaries are the treasure of the nation. Their compilation has always been considered an actual and primary task. Through dictionaries, the classical languages of the world (Latin, Greek, Sanskrit, Hebrew, Sogdian) are “reborn” and used. Analyzing international scientific terms, we get sure in the importance of dictionaries created in ancient times. Taking into account the disappearance and little research of Uzbek dialects and folk patois today, it is of urgent importance that we should develop the science of dialectology and, most importantly, create dictionaries of dialectual units. This small study focuses on the history, types and important issues of Uzbek dialect and patois vocabulary, as well as the study of Uzbek dialects. It also reflected on the current tasks of the Uzbek dialectology discipline today.*

**Key words:** *language, dialect, patois, folk language, dialectual vocabulary, types of vocabularies, cultural language, ethnographisms, linguo-culturems, lexical corpora, dialectual corpora, research, analysis, method.*

**Kirish.** O‘zbek tilshunosligi tarixida dialektologiya fanining o‘rni va ahamiyati juda katta. Bizning nazarimizda, tilni tadqiq qilish ilmi shevalarni o‘rganishdan boshlangan. XI asrda yaratilgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk”

asari tilshunoslik, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik fanlari qatori shevashunoslik bo'yicha ham ilk manba hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi kabi xalq jonli nutqi sheva va lahjalarini o'rganish XX asrning boshlarida rivojlanib bordi. Bunga misol sifatida jadidlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni ko'rsatishimiz mumkin. Jumladan, G'ozim Olim Yunusovning 1930-yilda yozilgan "O'zbek urug'laridan qatag'onlar va ularning tili" hamda "O'zbek shevalarining tasnifidan bir tajriba" asarini aytishimiz mumkin<sup>1</sup>. Bundan tashqari, aynan shu yillarda o'zbek va rus olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Y.D.Polivanov<sup>2</sup>, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov kabi turkolog olimlarning xizmatlari katta. Ayniqsa, A.K.Borovkovning "O'zbek sheva-lahjalarini tekshirishga doir savol-javoblar" nomli uslubiy tavsiyalari kelajakda sheva materiallarini yig'ishda va tahlillarni olib borishda metodik qo'llanma bo'lib xizmat qildi. XX asrning 50-80-yillari o'zbek dialektologiyasi tarixida eng rivojlangan davr deyish mumkin. Chunki shu yillarda yaratilgan tadqiqotlarning qamrov ko'lami nihoyatda keng. 1952-yilda Sh.Afzalov tomonidan yaratilgan "O'zbek tilining Parkent shevasi" hamda 1954-yilda H.G'ulomov tomonidan himoya qilingan "O'zbek tilining Jizzax shevasi" mavzusidagi tadqiqotlari shu yo'nalishda yaratilgan ilk dissertatsiyalardan sanaladi<sup>3</sup>. T.Mirsoatov, Y.A.Aliyev, S.Ibragimov, I.Farmonov, O'.Sharipov, N.G'afurova, I.Shamsiddinova, H.Uzoqov, V.Egamov, Sh.Shoabdurahmonov, I.Shamsiddinov, A.Shermatov, A.Ishayev, Sh.Nosirov, T.Yo'ldoshev, B.Jo'rayev, S.Zufarov, M.Valiyev, U.Tursunov, X.Doniyorov<sup>4</sup> kabi olimlar tomonidan Janubiy Qoraqalpog'iston, Sayram, O'sh, Gallaorol, Jo'sh, Qorako'l, Qarshi, Qo'qon, Yuqori Qashqadaryo, Janubiy Tojikiston, Nayman, Shahrisabz, Baxmal, Urgut, Pop singari hudud shevalari hamda dialektologiyaning umumiy masalalari o'rganildi. O'tgan asrning yigirmanchi yillarida shevalarni tadqiq qilish adabiy tilni shakllantirish ehtiyoji tufayli zaruriyat yuzasidan amalga oshirilgan edi. Chunki, xalqi juda ko'p urug' va qabillardan, tili esa xilma-xil va rang-barang sheva va dialektlardan tashkil topgan O'zbekiston sharoitida adabiy tilni asoslash, belgilash va tayin qilish, uning me'yorlarini va to'g'ri yozish qoidalarini yaratish, o'zbek tilida o'quv ishlarini tashkil qilish hamda darslik, o'quv qo'llanma, o'quv dasturlarini ishlab chiqish uchun ham shevalarni o'rganish kerak edi. Keyinchalik, 50-yillardan boshlab esa etnolingvistik xarakter kasb eta boshladi. Xalq og'zaki ijodi va xalq jonli nutqi umumiy adabiy til sharoitida yozib, o'rganib, qayd qilib qo'ymasa,

<sup>1</sup> Ахмедов С. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Биринчи жилд. -Т.: Миллий энциклопедия, 2000, 42-43-б.: Юнусов Ғ.О. Ўзбек шевалари таснифидан бир тажриба. -Т.:Ўздаврнашр, 1935 йил. 68-бет.

<sup>2</sup> Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология ва узбекский литературный язык. - Т.: Узгосиздат, 1933 йил. - 45 с.

<sup>3</sup> Афзалов Ш. Ўзбек тилининг Паркент шеvasи. Фил.фан. номзодлик диссертацияси. -Т., 1952. - 193 б.; Фуломов Х. Ўзбек тилининг Жиззах шеvasи. Фил.фан. номзодлик диссертацияси. -Т., 1954. -223 б.

<sup>4</sup> Ashirboyev S. O'zbek shevalarini o'rganish tamoyillari. "Terminologiya va dialektologiyaning zamonaviy masalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. -Toshkent: Bookmany print, 2023. -B. 204

yo‘qolib ketishi mumkin bo‘lgan milliy madaniy boylik sifatida tadqiq qilindi va bu yo‘nalishdagi ishlar, kam sonli bo‘lmasa-da, davom ettirilmoqda. Dialektal tadqiqotlarda obyektни o‘rganish orqali ma‘lum miqdorda sheva va hududga xos birliklar yig‘iladi va tadqiq etiladi. Bu materiallar lug‘at yoki ilova shaklda e‘lon qilinadi. Bu kichik tadqiqotimizda shevaga xos so‘zlardan tashkil topgan dialektal lug‘atlar haqida fikr yuritiladi.

**Tahlil.** 1971-yillarga qadar olib borilgan tadqiqotlar asosida yig‘ilgan til materiallari jamlanib, “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” Fanlar akademiyasi til va adabiyot institutida to‘planib, nashr etildi<sup>5</sup>. Bu lug‘at o‘zbek tilining barcha sheva va lahjalari til materiallarini o‘zida qamrab olmagan bo‘lsa-da, dialektologiya fanining taraqqiyotida o‘z o‘rniga ega. Har bir o‘rganilgan hudud shevasi o‘ziga xos lisoniy faktlarga ega. Buni amalga oshirilgan dialektologik tadqiqotlarning mazmun-mundarijasidan ham bilishimiz mumkin. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, asosan, bir hududning shevasini tilshunoslikning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiq qilish yetakchilik qiladi, nazarimizda. Jumladan, sheva va dialektlarning leksik va morfoligik xususiyatlarini tahlil qilish deyarli har bir ishda mavjud. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimiz “Shevalar lug‘ati”da taxminan 5 mingga yaqin so‘z izohlangan. Bundan tashqari, “Surxondaryo o‘zbek shevalarining lug‘ati”, “Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarining lug‘ati” kabi so‘zliklar ham yaratilgan<sup>6</sup>. Shu o‘rinda shevaga xos yoki dialektal lug‘atlarning tiplari va yaratilishi haqida to‘xtalib o‘tish lozim. Hududiy lug‘atlarni tuzuvchilar u yoki bu leksikografik manbani yaratish vazifasiga turlicha yondashdilar. Ko‘pchilik mintaqaviy lug‘atlarda faqat dialekt leksik birliklari mavjud. Dialekt lug‘atlarini tuzishning bunday printsiplari differentsial deb ataladi. Ba’zi lug‘atlar to‘liqlik tamoyilini asos qilib oladi, bu lug‘at dialekt yoki butun tilga mansubligidan qat’i nazar, dialektlarda yozilgan barcha lug‘atlarni o‘z ichiga oladi. Manbalarda bu ko‘rinishdagi lug‘atlarning bir necha tiplari sanab o‘tilgan. Bizningcha, ularni quyidagi tiplarga ajratish mumkin:

1. To‘liq dialektal lug‘atlar – o‘zbek tilida bunday lug‘at mavjud emas. Rus tilida bunday lug‘atlarning izohli va izohsiz tiplari mavjud. Rus shevalarining izohsiz lug‘ati elektron shaklda yaratilgan bo‘lib, doimo boyitilib borish imkoniyati mavjud<sup>7</sup>. Rus tili shevalari izohli lug‘atining 2 ta shakli mavjud. Bu, xususan, mashhur leksikograf B.A.Larin tomonidan tuzilgan “Tarixiy ma‘lumotlarga ega Pskov mintaqaviy lug‘ati”. Bu lug‘atga yozma manbalardan, nafaqat qadimgi yozma yodgorliklardan, balki XIX-XX asrlarda nashr etilgan va chop etilmagan turli materiallardan olingan sheva so‘zlari

<sup>5</sup> Ўзбек халқ шевалари луғати. -Тошкент: Фан, 1971, 409 б.

<sup>6</sup> Раҳимов С. Сурхондарё ўзбек шевалари луғати. Термиз, 1995.; Ишаев А. Қорақалпоғистон ўзбек шеваларининг луғати. -Тошкент, 1997.

<sup>7</sup> <https://www.xn-8sbbebp3agie1ace4adhj1o1a.xn-p1ai/search/label/%D1%81%D0%BB%D1%8D%D0%BD%D0%B3>

ham kiritilgan. Lugʻat lingvistik xaritalarni, shuningdek, baʼzi lugʻat yozuvlarini oʻz ichiga olganligi bilan qiziq, ularda toponimlarning tarqalish hududi yoki alohida soʻzlarning (barkan, bor va boshqalar) variantlari va maʼnolari koʻrsatilgan. Koʻpgina mintaqaviy lugʻatlar uchun materiallar tadqiqotchilar bilan suhbat jarayonida dialekt nutqini bevosita kuzatish orqali toʻplanadi. Shu maqsadda oʻqituvchilar va universitet talabalari ishtirok etadigan ekspeditsiyalar tashkil etiladi. Materiallarni toʻplash orqali tuzilgan “Arxangelsk hududiy lugʻati” bunga misol boʻla oladi. Bu 180 mingga yaqin soʻzlarni oʻz ichiga olgan eng katta mintaqaviy differentsial lugʻatlardan biridir. “Rus lahjalari lugʻati” uchun jonli dialekt materiallari ham maxsus toʻplangan, ammo bunga qoʻshimcha ravishda lugʻat A.V.Mirtovning “Don lugʻati”dan barcha maʼlumotlarni va mahalliy lugʻatni aks ettiruvchi badiiy asarlarni oʻz ichiga oladi (masalan, M.A.Sholoxov). Bosh muharrirlari F.P.Filin va F.P.Sorokoletov boʻlgan “Rus xalq lahjalari lugʻati”ning asosini boshqacha gʻoya tashkil etdi. Bu XIX-XX asrlarning yozma manbalaridan nashr etilgan va arxivdan olingan turli sohalarga oid dialekt lugʻatlarini oʻz ichiga olgan lugʻatdir. Unda 240 mingga yaqin soʻz bor. F.P.Filin tomonidan tuzilgan lugʻatning birinchi nashri turli xil manbalarning keng roʻyxatini oʻz ichiga oladi. Ushbu lugʻat, “Mintaqaviy buyuk ruscha lugʻat tajribasi” va V.I.Dahl lugʻati kabi, Rossiya ichidagi ruslar yashaydigan butun hududni qamrab oladi. “Buyuk rus tilining jonli izohli lugʻati”, V.I.Dal koʻp yillar davomida Rossiya boʻylab koʻplab sayohatlari davomida toʻplagan materiallarning oʻziga xos xususiyatlari bor. Muallif sheva lugʻati bilan cheklanib qolmay, umumiy rus tili va adabiy lugʻatni lugʻatga kiritgan. V.I.Dal lugʻatni alifbo-klaster deb ataladigan printsipga muvofiq yaratdi: u bir xil ildizli soʻzlarni bitta lugʻat yozuvida birlashtiradi, bu esa undan foydalanishni biroz qiyinlashtiradi. Ushbu lugʻat Rossiyaning butun hududi boʻyicha maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan toʻliq lugʻat turi boʻlib, unda soʻzlarning maʼnolarini talqin qilish ogʻzaki nutq, maqol va maqollar misollari bilan boy tasvirlanganligi bilan ham qiziq. Unda XX asr oʻrtalarida yashagan rus nutqining koʻplab faktlari saqlanib qolgan. Lugʻatning uchinchi nashri 1903-yilda V.I.Dal vafotidan soʻng nashr etilgan boʻlib, I.A.Boduen de Kurtene tahriri ostida lugʻatga koʻplab yangi soʻzlarni kiritgan va berilgan soʻzlarni umumiy alifbo tartibiga qoʻshgan<sup>8</sup>. Boshqa tillarda ham shu koʻrinishdagi lugʻatlar mavjud. Afsuski, Oʻzbek tilining bunday lugʻati yaratilmagan. Tilshunos olim Ahmad Ishayevning maʼlumot berishicha, 1988-yilgacha 9 ta doktorlik, 56 ta nomzodlik dissertatsiyasi yozilgan boʻlib, ularning bir qismida alohida oʻrganilgan hudud va manbaga doir kichik lugʻatlar tuzilgan va ilova qilingan. Bu lugʻatchalarda taxminan 40 mingga yaqin dialektal soʻzlar yigʻilgan<sup>9</sup>. Misol uchun tadqiqotchi O.Madrahimov

<sup>8</sup> [www.textologia.ru/russkiy/russkaya-dialektologia/dialektnaya-leksikografiya/harakteristika-osnovnih-tipov-russki-h-dialektnih-slovarey-nachalo/2615/?q=463&n=2615](http://www.textologia.ru/russkiy/russkaya-dialektologia/dialektnaya-leksikografiya/harakteristika-osnovnih-tipov-russki-h-dialektnih-slovarey-nachalo/2615/?q=463&n=2615)

<sup>9</sup> Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. -Тошкент: Фан, 1990. 17-б.



o‘z tadqiqotida ilova qilingan birliklar soni 1500 ta ekanligini ta’kidlab o‘tadi<sup>10</sup>. Bu to‘liq bo‘lmasa-da, “O‘zbek tilining sheva lug‘ati”ni nashr qilishga asos bo‘ladi.

2. Sheva-adabiy til ko‘rinishdagi lug‘atlar. Bunday lug‘atlar shu turdagi lug‘atlarning asosiy qismini tashkil qiladi. O‘zbek tilshunosligida alohida muallif o‘zi tadqiq qilgan obyekt asosida tuzilgan kichik lug‘at va 1971-yilda nashr qilingan “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” kabilar yaratilgan. Sheva-adabiy til ko‘rinishdagi lug‘atlar izohli so‘zlik tipida bo‘ladi. Tilshunoslikda adabiy tilda uchraydigan dialektal birliklarning tadqiqotlari ham mavjud. Ya’ni shevaga xos so‘zlar yillar davomida adabiy til bag‘riga singib boradi. Adabiy til va shevalarning qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan ishlar ham mavjud<sup>11</sup>. Dialektal birliklar adabiy til orqali izohlanadi lug‘atlardan tashqari, rus tilida izohlanadigan lug‘atlar ham yaratilgan. Misol tariqasida boshqirt, ozorboyjon, yoqut shevalari asosida yaratilgan lug‘atlar rus tilida izohlangan. Ma’lum ma’noda M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asari ham shunday xarakterga ega. Ya’ni, turk dialekt va shevalaridagi so‘z arab tilida izohlangan. Sheva va lahjalardagi birliklarni turkiy va turkiy bo‘lmagan tillarga, yozma, folklor va badiiy asar tiliga qiyoslab o‘rganish orqali yaratilgan differensial lug‘atlar ham mavjud. Bunday lug‘atlarda so‘zning etimologiyasi, qo‘llanish hududi, hududiy farq va uyg‘unliklari, fonetik me‘yorlari ham inobatga olinadi. O‘zbek tilshunosligida bu tipdagi lug‘atlar mavjud. “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”ning ilova qismida shu kabi lug‘at berilgan. Ammo hozirgacha o‘zbek shevalarining hech biri bo‘yicha katta hajmdagi differensial lug‘at yaratilmagan. O‘zbek dialektologiyasi sheva-adabiy til yoki adabiy til-sheva tipidagi lug‘atlarga mujtojdir.

Differensial lug‘atlarning adabiy til-sheva ko‘rinishdagi turlari ham mavjud. Manbalarda turkologiyada bunday so‘zliklar borligi haqida ma’lumotlar berilgan. Rus tilshunosligida bunday lug‘atlar yaratilgan va doimiy takomillashtirilib borilmoqda. Bu turdagi lug‘atlarda bosh so‘z sifatida adabiy tildagi so‘z beriladi va shevaga xos birliklar variantlari va dubletlari ifodalanadi. B.Jo‘rayev va Sh.Sariboyevlar<sup>12</sup>ning kichik hajmli lug‘atlarini bunga misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

3. Shevaga xos so‘zlarning fonetik lug‘atlari o‘z xususiyatiga ko‘ra noyob lug‘atlar sanaladi. Unda bosh so‘z adabiy tilda qo‘llanilgan birlik bo‘lib, uning barcha sheva va lahjalardagi turli xil fonetik variantlari ilova qilinadi. Ya’ni bunday lug‘atlar so‘zning boshqa sheva va lahjalarda qo‘llanilishi hamda fonetik-artikulyatsion farqlarni o‘rganishga xizmat qiladi. Fonetik dialektizmlar lug‘atini tarixiy, yozma, folklor va xalq jonli nutqi asosida tuzish mumkin. O‘zbek tilshunosligida folklor

<sup>10</sup> Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикасини ўрганиш масалалари. -Тошкент: Фан, 4-6.

<sup>11</sup> Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шева лексиқасининг қиёсий тадқиқи. -Т.: Фан, 2005.

<sup>12</sup> Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари лексикаси. -Тошкент, 1966.; Сарибоев Ш. Казахская региональная лексикография. Алматы, 1976.

manbalardan, jumladan, “Alpomish” dostonida qo‘llanilgan dialektizmlar lug‘ati, qavm-qarindoshlik terminlarining dialektal lug‘atlari mavjud. Durдона Xudayberganovaning “Dostonlar tilida fonetik dialektizmlar<sup>13</sup>” maqolasida bu haqida ayrim ma‘lumotlar berilgan.

4. Shevaga xos terminlar lug‘ati. Bunday lug‘at o‘zbek tilshunosligida kichik bo‘lsada, bir necha sohalar bo‘yicha tuzilgan. A.Ishayevning ma‘lumotlariga qaraganda, kasb-hunar, chorvachilik, uy qurilishi, egarchilik, metrologik, ayrim sheva va sohalar bo‘yicha dialektal terminlar lug‘atlari yaratilgan. Ularda jami: 7180 dan ortiq so‘z jamlangan<sup>14</sup>. Bunday ishlar keyingi yillarda ham davom etmoqda. Jumladan, “Soha terminlarining sistem tahlili muammolari<sup>15</sup>”, “O‘zbek xalq shevalari urf-odat, marosim leksikasining lingvoareal talqini<sup>16</sup>”, “O‘zbek tilining kashtachilik leksikasi va uning leksikografik talqini<sup>17</sup>”, “O‘zbek tilining o‘tovsozlik leksikasi<sup>18</sup>”, “O‘zbek tilining qorako‘lchilik terminologiyasi<sup>19</sup>”, “O‘zbek tilida non va non mahsulotlari bilan bog‘liq lug‘aviy birliklar talqini<sup>20</sup>” kabi o‘nlab tadqiqotlarda shevaga xos terminlarning lug‘ati ilova qilingan. Yuqorida sanab o‘tilgan ilovalarni birlashtirib, takomillashtirgan holda o‘zbek tilining shevaga xos terminlari lug‘ati tuzish lozim. Shuningdek, kulolchilik, temirchilik, kosiblik, qishloq xo‘jaligi, savdo-sotiq, me‘morchilik, kabi sohalarda ham ko‘plab dialektal terminlar mavjud. Ularni ham jamlagan holda lug‘at yaratilsa, katta hajmli, termin va atamalarga boy manba hosil bo‘ladi.

5. Dialektal toponim va laqablar lug‘ati. Ma‘lumki, joy nomlari va kishi ismlari rasmiy maqomga ega bo‘ladi va adabiy til materialini sifatida o‘rganiladi. Ammo rasmiy maqomga ega bo‘lmagan, xalq tili qo‘llaniladigan toponim va laqablar (yoki kishi ismlari) ham mavjud. Ularning ham o‘zbek sheva va lahjalari uchun umumiy bo‘lgan dialektal so‘zligi yaratilish mumkin. Toponimik va antroponimik tadqiqotlar joy nomlari va laqablar bilan bog‘liq birliklarning qisqacha lug‘atlari ilova qilinadi yoki alohida chop etiladi. Bunday ilova va nashrlarni dialektal toponimik yoki dialektal laqablar lug‘atlari sifatida talqin qilish mumkin. Toponimik va kishi laqablari asosida dialektal lug‘atlarni tuzish ehtiyoji yana shunda ko‘rinadiki, o‘zbek xalq jonli shevalari

<sup>13</sup> Xudayberganova D. Dostonlar tilida fonetik dialektizmlar. Filologik tadqiqotlar. -Toshkent: Muharrir, 2020, 84-87-b.

<sup>14</sup> Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. -Тошкент: Фан, 45-б.

<sup>15</sup> Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. Монография. -Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.

<sup>16</sup> Suvanova M. O‘zbek xalq shevalari urf-odat, marosim leksikasining lingvoareal talqini. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Qarshi, 2023.

<sup>17</sup> Bahodirova G. O‘zbek tilining kashtachilik leksikasi va uning leksikografik talqini. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Qarshi, 2023.

<sup>18</sup> Бердиев Х. Ўзбек тилининг ўтовсозлик лексикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Самарқанд, 2017.

<sup>19</sup> Каршиев Н. Ўзбек тилининг қорақўлчилик терминологияси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Самарқанд, 2021.

<sup>20</sup> Ibođova A. O‘zbek tilida non va non mahsulotlari bilan bog‘liq lug‘aviy birliklar talqini. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Samarqand. 2023.

bunday onimlarga juda boy. Birgina misol, O.Gadayevning toponimlarga bag'ishlangan tadqiqotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ikki tuman (Samarqand viloyati Payariq va Ishtixon tumanlari) hududi ma'lumotlari asosida 3320 toponimlarni tahlilga tortgan. Shundan 1450 dan ortig'ini rasmiy nom sifatida qabul qilish mumkin. Keyingi yillarda qishloqlarda ham ko'chalarga rasmiy nom berilib, uylarni raqamlashtirilganligi hisobiga rasmiy toponimlar ulushi ortdi. Shunday bo'lsada ikki tuman joy nomlarining 40%i rasmiy maqomga ega. Qolgan 1870 tasi, umumiy nomlarning 60%ga yaqini dialektal toponimlardir. Bunday raqamlarni tadqiqotchilar Sh.Temirov<sup>21</sup>, O.Begimqulov kabi o'nlab olimlarning ishlarida ham ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham shevaga xos toponimlarning katta hajmli lug'atini tuzish ehtiyoji mavjud va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, o'zbek xalq shevalari asosida frazeologizmlar, omonim va sinonimlar, motivatsion va ters lug'atlar yaratish mumkin. Ayrim tadqiqotlarda bunday lug'atlar ilova qilingan. Dialektal frazeologizmlarning lug'ati xalq jonli tilining jozibasini ko'rsatib bera oladi. Chunki, shevalarda adabiy tilga nisbatan ko'chim va kinoya kabi tilning ohangdorligi va jozibasini ifodalash kuchli. Shevaga xos birliklarning sinonimik xususiyatlarini belgilovchi lug'atlarda xalq jonli nutqining boyligini kuzatishimiz mumkin.

Keyingi yillarda o'zbek sheva va lahjalari bo'yicha lingvomadaniy tadqiqotlar ham olib borilmoqda. Sun'iy til ko'rinishidagi adabiy tildan ko'ra shevalarda lingvomadaniy xususiyatlar yaqqol ko'rinadi. Ya'ni, shevalar tayyor lingvomadaniy material hisoblanadi. O.Fayfulloyevning "O'zbek folkloridagi lingvokulturemellarining inglizcha tarjimada berilishi"<sup>22</sup>, S.Rahimovning "Surxondaryo chorvachilik leksikasida etnografizmlar"<sup>23</sup>, F.Musayevaning "O'zbek shevalarining lingvomadaniy tadqiqi"<sup>24</sup> kabi tadqiqotlar ham amalga oshirilgan. O'zbek tilshunosligining boshqa sohalari qatori dialektologiya fanida ham antroposentrik paradigma metodlari asosida til materialini tadqiq qilish taboro keng yoyilmoqda. Jumladan, bunday tadqiq usullaridan biri – lingvomadaniy tahlil metodi uchun sun'iy o'zlashtirilgan til materialidan ko'ra, tabiiy shakllangan til materialini, ya'ni xalq tili bo'lgan sheva va lahjalarni o'rganish qulay. Xalq shevalari – milliy qadriyatlarimiz ko'zgusi, milliy madaniyatimizning tarkibiy qismi, milliy tilimizning "joni", madaniyatimizning yorqin ko'rinishidir. Uni shunchaki, element, material

<sup>21</sup> Темиров Ш. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Самарқанд, 2019.

<sup>22</sup> Файзуллоев Ў., Ўзбек фольклоридagi Лингвокультуремаларнинг инглизча таржимада берилиши (болалар фольклори жанри ва эртактлар мисолида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси.- Тошкент. 2019.

<sup>23</sup> Раҳмонов Б., Сурхондарё чорвачилик лексикасида этнографизмлар // Ўзбек тили ва адабиёти. -№ 4, 2018, -Б. 108-112.

<sup>24</sup> Мусаева Ф. Ўзбек шеваларининг лингвомаданий тадқиқи. -Тошкент: Фан. 2019, 120-бет.



sifatida emas, balki egasi bo'lgan insondan ajratmasdan o'rganish lingvomadaniy usulning vazifasi sanaladi. Lingvomadaniy tadqiqotlar asosiy birligi lingvokulturemalar hisoblanadi. Manbalarda unga quyidagicha ta'rif belriladi: til belgisining ma'nosi va madaniy mazmun birikuvidan tarkib topuvchi, semantikasida madaniy axborot yaqqol namoyon bo'luvchi til birliklari lingvokulturemalar deyiladi. Jumladan, frazeologizmlar, etalonlar, ramzlar, metaforalar, turg'un o'xshatishlar, nutqiy etiketlar, urf-odat va marosimga doir so'zlar, topishmoqlar, milliy realiyalar, arxitiplar, mifologemalar, lakunalar, prezedent birliklar lingvokulturemalarni tashkil qiladi<sup>25</sup>. Dialektal tadqiqotlarni ham lingvomadaniy usullarda amalga oshirish, dialektal lingvokulturemalarning lug'atini tuzish, nihoyatda, dolzarb masaladir. Tilmizning boyligini va madaniyligini namoyon qilishda bu tipdagi lug'atlarning ahamiyati katta.

**Xulosa.** O'zbek zamonaviy dialektologiya fanining yuzaga kelishi bilan dialektal lug'atlarni yaratish dolzarbligi doimo qayd etib kelinadi. Yuqorida, mulohazalarimizni dalillash uchun qayd qilib o'tganimiz tilshunos olim A.Ishayevdan tashqari, taniqli tilshunoslar F.Abdullayev, A.G'ulomov, K.Nazarov, A.Nosirov, D.Abdurahmonov, S.Ashirboyev, M.Abdiyev, N.Murodova ham o'z tadqiqotlarida ta'kidlab keladilar. Shulardan xulosa chiqargan holda, avvalo, sheva va lahjalarni tadqiq etish ko'lamini o'zgartirish, hajm va sifat jihatdan yangicha mazmun kiritish lozim. O'rganilmagan, chala tadqiq etilgan shevalarni o'rganish, ularni tizimlashtirish, areal xususiyatlarini belgilash va xaritalash lozim. Bu ishlarni amalga oshirish, bundan 70-80 yil oldingi kabi oson kechmaydi. To'g'ri, bugun qo'limizda kompyuter va boshqa elektron vositalar bor, ular ishlarimizni, ma'lum ma'noda, yengillashtiradi. Ammo shevalar "yo'qolib", xalq tili "adabiylashib" bormoqda. Tilimizning "asl ildizlarini" yaqqol ifodalaydigan dialektal birliklarni asrab qolish uchun ham shevalarni o'rganishni kechiktirmasligimiz lozim. Sheva materiallarini to'plash, tahlil qilish va saqlashda yangi metod va imkoniyatlardan foydalanishimiz kerak. Birlamchi vazifa, qanday ko'rinishda bo'lmasin, lug'atlar yaratishimiz, hozirgi kunda ko'p qo'llanilayotgan korpus lingvistikasiga murojaat qilishimiz, o'zbek sheva va lahjalarining dialektak milliy korpusini yaratishimiz juda dolzarbdir. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalishda ilk qadamlar tashlangan. Tadqiqotchi Muyassar Xolova tomonidan Boysun qipchoq shevasi asosida milliy shevalarning korpusini tuzishning lingvistik asoslari bo'yicha ilk ish amalga oshirildi<sup>26</sup>. Bu sohadagi tahlillar keng ko'lamda amalga oshiriladi, albatta. Zero tilimizning "...sofligini saqlash, uni boyitib borish aholining nutq madaniyatini oshirish, ...tilning zamonaviy axborot texnologiyalari va

<sup>25</sup> Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent, 2015. -B.26.

<sup>26</sup> Холова М. Ўзбек миллий шевалари корпусини тузишнинг лингвистик асослари (Бойсун тумани “ж”ловчи шевалари мисолида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси.. Термиз. 2022.

kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash<sup>27</sup>” bugungi taraqqiyot etgan davrning vazifalaridan biridir. Bundan tashqari, shevashunoslikka xos tadqiqot va tadqiqotlar natijasida yig'ilgan dalillarni tizimlashtirishimiz zarur. Buning uchun yaqinda tuzilgan “O'zbek shevashunosligi markazi” juda zaruriy tashkilot sanaladi. Umid qilamizki, Markaz tizimli tarzda ish olib boradi hamda o'zbek dialektologiyasining rivojini belgilab bera oladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 20 октябрдаги «Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6084-сон фармони // <https://lex.uz/docs/5058351>.
2. Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. Монография. -Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
3. Аҳмедов С. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Биринчи жилд. -Т.: Миллий энциклопедия, 2000, 42-43-б.:
4. Ashirboyev S. O'zbek shevalarini o'rganish tamoyillari. “Terminologiya va dialektologiyaning zamonaviy masalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. -Toshkent: Bookmany print, 2023. -B. 204.
5. Афзалов Ш. Ўзбек тилининг Паркент шеваси. Фил.фан. номзодлик диссертацияси. -Т., 1952. - 193 б.
6. Bahodirova G. O'zbek tilining kashtachilik leksikasi va uning leksikografik talqini. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Qarshi, 2023.
7. Бердиев Х. Ўзбек тилининг ўтовсозлик лексикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Самарқанд, 2017.
8. Xudayberganova D. Dostonlar tilida fonetik dialektizmlar. Filologik tadqiqotlar. -Toshkent: Muharrir, 2020, 84-87-b.
9. <https://www.xn--8sbbep3agie1ace4adhj1o1a.xn--p1ai/search/label/%D1%81%D0%BB%D1%8D%D0%BD%D0%B3>
10. Ibodova A. O'zbek tilida non va non mahsulotlari bilan bog'liq lug'aviy birliklar talqini. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Samarqand, 2023.
11. Suvanova M. O'zbek xalq shevalari urf-odat, marosim leksikasining lingvoareal talqini. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Qarshi, 2023.
12. [www.textologia.ru/russkiy/russkaya-dialektologia/dialektnayaleksikografiya/harakteristika-osnovnih-tipov-russkiy-dialektnih-slovarey-nachalo/2615/?q=463&n=2615](http://www.textologia.ru/russkiy/russkaya-dialektologia/dialektnayaleksikografiya/harakteristika-osnovnih-tipov-russkiy-dialektnih-slovarey-nachalo/2615/?q=463&n=2615)

<sup>27</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 20 октябрдаги «Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6084-сон фармони // <https://lex.uz/docs/5058351>.

13. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent, 2015. -B.26.
14. Юнусов Ғ.О. Ўзбек шевалари таснифидан бир тажриба. –Т.: Ўздаврнашр, 1935 йил. 68-бет.
15. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари лексикаси, Ўзбек шевалари лексикаси, Тошкент, 1966.;
16. Сарибоев Ш. Казахская региональная лексикография. Алматы, 1976.
17. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. -Тошкент: Фан. 1990, 140 б.
18. Қаршиев Н. Ўзбек тилининг қоракўлчилик терминологияси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Самарқанд, 2021.
19. Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикасини ўрганиш масалалари. -Тошкент: Фан, 4-б.
20. Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. -Т.: Фан, 2005.
21. Мусаева Ф. Ўзбек шеваларининг лингвомаданий тадқиқи. -Тошкент: Фан. 2019, 120-бет.
22. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология ва узбекский литературный язык. - Т.: Узгосиздат, 1933 йил. - 45 с.
23. Раҳимов С. Сурхондарё ўзбек шевалари луғати. Термиз, 1995.; Ишаев А. Қорақалпоғистон ўзбек шеваларининг луғати. -Тошкент, 1997.
24. Раҳмонов Б., Сурхондарё чорвачилик лексикасида этнографизмлар // Ўзбек тили ва адабиёти. -№4, 2018, -Б. 108-112.
25. Темиров Ш. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Самарқанд, 2019.
26. Ўзбек халқ шевалари луғати. -Тошкент: Фан, 1971, 409 б.
27. Файзуллоев Ў. Ўзбек фольклоридаги Лингвокультуремаларнинг инглизча таржимада берилиши (болалар фольклори жанри ва эртақлар мисолида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси.- Тошкент. 2019.
28. Холова М. Ўзбек миллий шевалари корпусини тузишнинг лингвистик асослари (Бойсун тумани “ж”ловчи шевалари мисолида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз. 2022.
29. Фуломов Х. Ўзбек тилининг Жиззах шеваси, Фил.фан. номзодлик диссертацияси. -Т., 1954. -223 б.